SHARQIY FARG‘ONA SHAROITIDA *CANIS AUREUS* NING GELMINT FAUNASI VA UNING EPIDEMIOLOGIK AHAMIYATI

[a]Abduqodirova Ziroatxon Solidjonovna
[a]Andijon davlat universiteti Biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada Sharqiy Farg‘ona sharoitida chiyabo‘ri (Canis aureus)ning ekologik xususiyatlari va gelmint faunasi tahlil qilingan. Gelmintologik tadqiqot natijasida 34 ta chiyabo‘ri organizmida 24 tur parazit gelmint qayd etildi hamda ularning tarqalish ko‘rsatkichlari (invaziya ekstensivligi va intensivligi) aniqlandi. Turning inson va xonaki hayvonlar uchun epidemiologik va epizootologik ahamiyati baholangan.*

Kalit so‘zlar. *Canis aureus, gelmint, invaziya ekstensivligi, invaziya intensivligi, Sharqiy Farg‘ona, ekologiya.*

Canis aureus – keng ma’noda oddiy chiyabo‘ri nomi bilan ma’lum bo‘lib, o‘rta hajmli itsimonlar (Canidae) oilasi vakillaridan biri hisoblanadi. Bu tur Afrika, Janubi-Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyoda keng tarqalgan bo‘lib, so‘nggi yillarda uning areali Markaziy va G‘arbiy Yevropagacha kengaygan [4].

Chiyabo‘ri (*Canis aureus*) – o‘rta hajmli itsimonlar (Canidae) oilasi vakili bo‘lib, dengiz sathidan 3500 m gacha balandlikda, ochiq tekislik, cho‘l, butazor va qishloq xo‘jaligi landshaftlarida tarqalgan; Yevropada asosan ekoton zonalarni afzal ko‘radi [8, 9]. U hammaxo‘r yirtqich bo‘lib, kemiruvchilar, tuyoqlilar, qushlar, mevalar va ozuqa chiqindilari bilan oziqlanadi; ratsion tarkibi mavsum va hududga qarab o‘zgaradi [10].

Chiyabo‘rilar barqaror oilaviy guruhlar hosil qiladi, monogam bo‘lib, nasl parvarishiga birgalikda qaraydi; ko‘payish mavsumiy va monoestrus xarakterga ega [2, 5]. Tur yuqori ko‘chish qobiliyatiga ega bo‘lib, uzoq masofali migratsiyalar areal kengayishiga xizmat qiladi [3]. Shuningdek, chiyabo‘ri ko‘plab parazit va patogenlar uchun tabiiy rezervuar hisoblanib, aniqlangan qo‘zg‘atuvchilarning ko‘pchiligi xonaki hayvonlar bilan umumiy va inson salomatligi uchun xavf tug‘diradi [6, 7].

O‘zbekistonda *Canis aureus* asosan cho‘l-yaylov zonalari hamda daryo bo‘yidagi to‘qay va butazorlarda tarqalgan bo‘lib, inson va xonaki hayvonlardagi ko‘plab gelmintoz kasalliklarining tabiiy rezervuari hisoblanadi [1]. Shu bois Sharqiy Farg‘ona sharoitida turning populyatsiyasi, biotsenozdagi ekologik roli va parazit faunasini o‘rganish zoologiya hamda ekologiyaning dolzarb vazifalaridan biridir.

Olib borilgan gelmintologik tadqiqotlar natijasida jami 34 ta chiyabo‘ri (*Canis aureus*) organizmi tekshirildi. Tekshirilgan chiyabo‘rilarda jami 24 tur parazit gelmint qayd etildi. Ular sistematik jihatdan 2 tip, 3 sinf, 8 turkum, 14 oila va 16 avlodga mansub ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Sharqiy Farg‘ona sharoitida chiyabo‘rilarning gelmintlar bilan zararlanishi

t/r	Gelmint turi	**Chiyabo‘ri - 34**	
		Zararlangan, bosh/%	II, nusxa
1	*Spirometra erinacei-europei*	4/11,7	7±1,8
2	*Dipylidium caninum*	3/8,8	16±2,7
3	*Diplopylidium nőlleri*	2/5,9	10±1,4
4	*Joyeuxiella echinorhynchoides*	2/5,9	18±2,8
5	*Taenia hydatigena*	2/5,9	17±3,2
6	*Taenia pisiformis*	1/2,9	12
7	*Hydatigera taeniaformis*	2/5,9	9±0,5
8	*Multiceps multiceps*	2/5,9	13±2,4
9	*Alveococcus multilocularis*	1 /2,9	6
10	*Echinococcus granulosus*	2 /5,9	13±2,3
11	*Mesocestoides lineatus*	1 /2,9	6
12	*Plagiorchis elegans*	1 /2,9	7
13	*Alaria alata*	2 / 5,9	6±0,5
14	*Trichocephalus vulpis*	3 / 8,8	11±1,3
15	*Dioctophyma renale*	3 / 8,8	6,3±0,5
16	*Ancylostoma caninum*	2 / 5,9	7±0,5
17	*Crenosoma vulpis*	3 / 8,8	6±0,7
18	*Toxascaris leonina*	6 / 17,6	21±2,8
19	*Toxocara canis*	4 / 11,7	26±3,9
20	*Physaloptera sibirica*	2 / 5,9	11±0,5
21	*Rictularia affinis*	3 / 8,8	13±0,7
22	*Dirofilaria immitis*	3 / 8,8	8±0,7
23	*Dirofilaria repens*	1 / 2,9	2
24	*Macracanthorynchus hirudinaceus*	5 / 14,7	9±1,4

Chiyabo‘rilarda sestodalarning 11 turi, trematodalarning 2 turi, nematodalarning 10 turi va akantotsefalalarning 1 turi qayd etildi. Invaziya ekstensivligi 2,9% dan 17,6% gacha, invaziya intensivligi esa 2–26 nusxani tashkil etdi. Eng past zararlanish (2,9%) 5 tur gelmintda (*Taenia pisiformis, Alveococcus multilocularis, Mesocestoides lineatus, Plagiorchis elegans, Dirofilaria repens*), past zararlanish (5,9%) 9 turda kuzatildi. Eng yuqori zararlanish ko‘rsatkichlari *Toxascaris leonina* (17,6%), *Macracanthorynchus hirudinaceus* (14,7%), *Spirometra erinacei-europei*, *Toxocara canis* (har biri 11,7%) gelmintlariga to‘g‘ri keldi. Qolgan turlar o‘rtacha darajada (8,8%) zararlanish bilan qayd etildi.

Aniqlangan turlarning aksariyati xonaki hayvonlar bilan umumiy va inson salomatligi uchun xavfli bo‘lgani sababli, chiyabo‘ri hududda zoonoz va invazion

kasalliklarning tabiiy rezervuari sifatida muhim epidemiologik va epizootologik ahamiyatga ega. Shu bois turning soni va parazit faunasini muntazam monitoring qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Muminov P. A. (1968). Gelmintofauna dikix plotoyadnых Uzbekistana i yeye rol v epidemiologii i epizootologii // Gelmintы jivotnых i rasteniy Uzbekistana. Tashkent. – S. 36-114.
2. Baskaran, N., Karthikeyan, G., Ramkumaran, K. (2020). Golden Jackal *Canis aureus* Linnaeus, 1758 (Mammalia: Carnivora: Canidae) distribution pattern and feeding at Point Calimere Wildlife Sanctuary, India. *Journal of Threatened Taxa*.
3. Bogdanowicz, W., Bilska, A.G., Kleven, O., (...), Kopatz, A. (2025). Species on the move: a genetic story of three golden jackals at the expansion front. *Mammalian Biology*.
4. Cunze, S., Klimpel, S. (2022). From the Balkan towards Western Europe: Range expansion of the golden jackal (*Canis aureus*)—A climatic niche modeling approach. *Ecology and Evolution*.
5. Custers, J., Hatlauf, J., van der Niet, S., (...), Miliou, A. (2024). The Secret Family Life of a Group of Golden Jackals on Samos, Greece. *Ecology and Evolution*.
6. Lapid, R., Motro, Y., Craddock, H., (...), Moran-Gilad, J. (2023). Fecal microbiota of the synanthropic golden jackal (*Canis aureus*). *Animal Microbiome*.
7. Lapid, R., Motro, Y., Juravel, K., (...), Kahila Bar-Gal, G. (2025). The golden jackal (*Canis aureus*): interaction of fur and fecal microbiota, host genetics and animal traits. *Animal Microbiome*.
8. Männil, P., Ranc, N. (2022). Golden jackal (*Canis aureus*) in Estonia: development of a thriving population in the boreal ecoregion. *Mammal Research*.
9. Saruhan, T.B., Sarı, A. (2022). Altitudinal Distribution and Habitat Use of the Golden Jackal (*Canis aureus* Linnaeus, 1758) in Trabzon, Arsin-Yanbolu Valley in Turkey. *Pakistan Journal of Zoology*.
10. Vlasseva, A., Chassovnikarova, T., Atanassov, N. (2017). Autumn-winter diet and food niche overlap between red fox (*Vulpes vulpes* L., 1758) and golden Jackal (*Canis aureus* L., 1758) in two Regions in Bulgaria. *Acta Zoologica Bulgarica*.